Bandlik determinantlarini ekonometrik baholash boʻyicha xorijiy adabiyotlarda uzoq tarixga ega ilmiy yoʻnalish shakllangan. D. J. Storey firmalarning tugʻilishi, oʻsishi va yashab qolishini yaxlit dinamik tizim sifatida modellashtirib, statik koʻrsatkichlar oʻrniga vaqt boʻyicha kuzatuvlarga asoslangan tahlilning ustunligini asoslagan [19]. S. J. Davis, J. Haltiwanger va S. Schuh kichik korxonalarda yalpi ish oʻrinlari yaratilishi yuqori boʻlsa-da, ularning yoʻqolish surʼati ham yuqori ekanini koʻrsatib, oddiy oʻrtacha koʻrsatkichlar sof bandlik dinamikasini toʻliq aks ettirmasligi mumkinligini asoslagan [5]. J. C. Haltiwanger, R. S. Jarmin va J. Miranda firma yoshi va hajmini bir vaqtning oʻzida nazorat qiluvchi ekonometrik spetsifikatsiya zarurligini asoslab, faqat hajm boʻyicha guruhlash statistik jihatdan notoʻgʻri natijalarga olib kelishi mumkinligini koʻrsatgan [9]. M. Ayyagari, A. Demirgüç-Kunt va V. Maksimovic rivojlanayotgan mamlakatlar maʼlumotlari asosida regressiya tahlilini oʻtkazib, kichik va yosh firmalarning bandlik oʻsishidagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq ekanini aniqlagan [3]. Bu esa ekonometrik natijalarni bir mamlakatdan ikkinchisiga mexanik tarzda koʻchirish mumkin emasligini koʻrsatadi. T. Beck, A. Demirgüç-Kunt va R. Levine kross-mamlakat regressiyasida kichik biznes ulushi bilan iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi oddiy korrelyatsiyani sababiy bogʻliqlik sifatida talqin qilishning metodologik xavfini alohida taʼkidlagan [4]. Z. J. Acs va hammualliflari esa panel Fixed Effects spetsifikatsiyasidan foydalanib, tadbirkorlik va institutsional sifatni yagona ekonometrik model doirasida baholash imkoniyatini amalda koʻrsatgan [1].

Oʻzbekistonlik tadqiqotchilar orasida ham bandlik determinantlarini miqdoriy baholashga bagʻishlangan tadqiqotlar mavjud. S. Isakjanova yoshlar demografiyasi va tadbirkorlik faolligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni statistik dinamika usulida tahlil qiladi [11], O. Arzikulov kichik va oʻrta biznesning YaIM, bandlik va eksport koʻrsatkichlariga ta'sirini ekonometrik modellashtirish orqali baholaydi [2], J. Kurbonov kichik biznes rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tizimli tarzda oʻrganadi [12]. G. R. Kuziyeva innovatsiya va raqamlashtirish darajasining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholasa [13], F. N. Yuldashev axborot tizimlaridan foydalanish bilan xodimlar faoliyati samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni tadqiq etadi [24], Sh. Xoliyorova esa ayollar bandligiga ta'sir etuvchi omillarni regressiya modeli orqali aniqlaydi [23]. U. V. Gʻafurov kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini, jumladan, tartibga solish intensivligi bilan bandlik natijasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qiladi [7], S. K. Salaev esa kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini dinamik model asosida bashoratlashga urinadi [18].

Keltirilgan tadqiqotlarning umumiy jihati shundaki, ularning har biri, qoida tariqasida, bitta ekonometrik metod (regressiya, korrelyatsiya yoki statistik dinamika) doirasida cheklanadi va bandlikka ta'sir etuvchi sakkizta omil guruhini yagona tanlash mezonlari asosida qiyoslab, ularga mos metodni ilmiy asoslangan holda tanlash mexanizmini toʻliq yoritmaydi. Bundan tashqari, milliy tadqiqotlarda hududiy panel ma'lumotlar asosida qurilgan modellardan foydalanish nisbatan kam uchraydi. Bu esa hududlar oʻrtasidagi kuzatilmaydigan farqlarni, masalan, boshqaruv sifati yoki ishbilarmonlik madaniyati kabi omillarni hisobga olish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Aynan shu ilmiy boʻshliq – bandlik omillarini yagona tizimga keltirish va ularni baholash uchun ekonometrik metodlarni ilmiy asoslangan mezonlar boʻyicha tanlash mexanizmini takomillashtirish zarurati – mazkur maqolaning tadqiqot yoʻnalishini belgilaydi.

Tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi PQ-306-son qaroriga[1] [16] tayanadi. Mazkur qarorda davlat koʻmagidan foydalanish shartlaridan biri sifatida kamida 4, 5 yoki 10 nafar doimiy ish oʻrni tashkil etish mezoni belgilangan. Ushbu me'yor bandlik natijasini korxona darajasida qayd etishning huquqiy asosini yaratadi hamda kichik biznes subyektlarida yangi ish oʻrinlarini shakllantirishni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bandlik natijasining qaysi omillar hisobiga shakllanishini aniqlash uchun tegishli iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlardan foydalanish zarurati mavjud.

"Kichik va oʻrta biznesning iqtisodiyotdagi oʻrnini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi PF-50-son Farmonda[2] [17] 2030-yilgacha sektor ulushini 78 foizga yetkazish va 2 milliondan ortiq yangi ish oʻrni yaratish vazifasi belgilangan. Mazkur maqsadlar kichik va oʻrta biznesning bandlikni ta'minlashdagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan boʻlib, cheklangan davlat resurslaridan samarali foydalanish va bandlik samarasi yuqori boʻlgan yoʻnalishlarni aniqlashni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, bandlikka ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ta'sir kuchini ishonchli ekonometrik usullar yordamida oʻlchash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda tadqiqotda quyidagi masalalar belgilandi: birinchidan, bandlikka ta'sir etuvchi koʻp sonli omillarni ularning ta'sir yoʻnalishi va mexanizmiga koʻra bir nechta yaxlit funksional guruhlarga birlashtirish; ikkinchidan, mavjud ekonometrik va statistik metodlarni ma'lumotlarga boʻlgan talab, sababiy bogʻliqlikni aniqlash imkoniyati hamda hududiy tafovutlarni hisobga olish qobiliyati mezonlari boʻyicha qiyoslash va ularning tadqiqot maqsadiga muvofiqligini asoslangan tarzda baholash; uchinchidan, tanlangan asosiy metod uchun aniq ekonometrik spetsifikatsiyani hamda uning natijalari ishonchliligini ta'minlovchi diagnostik testlar majmuini shakllantirish.

Tadqiqot obyekti – Oʻzbekistonning kichik biznes subyektlarida bandlikka ta'sir etuvchi omillar majmui, predmeti esa – ushbu omillarni tizimlashtirish va ularni miqdoriy baholash imkonini beruvchi ekonometrik usullar oʻrtasidagi metodologik bogʻliqlikdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning birinchi bosqichida bandlikka ta'sir etuvchi omillar ularning iqtisodiy tabiati va ta'sir kanallaridan kelib chiqib, sakkizta funksional guruhga tizimlashtirildi. Jumladan, iqtisodiy omillar (YaIM va tarmoq mahsuloti oʻsishi, ichki talab), institutsional omillar (roʻyxatdan oʻtkazish tartibi, soliq yuki, mulk huquqining himoyasi), demografik omillar (mehnatga layoqatli aholi soni, migratsiya saldosi), hududiy omillar (infratuzilma, bozor sigʻimi, transport imkoniyatlari), moliyaviy omillar (kredit hajmi, foiz stavkasi, moliyaviy inklyuziya), innovatsion omillar (yangi mahsulot va texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-

1 Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.06.2022 yildagi 306-son https://lex.uz/ru/docs/-6049663
2 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son https://lex.uz/docs/-7444738

konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) xarajatlar), raqamli omillar (internet qamrovi, elektron savdo) hamda tashqi iqtisodiy omillar (eksport-import hajmi, xorijiy investitsiyalar) alohida guruhlar sifatida shakllantirildi (1-rasm).




**1-rasm. Kichik biznesda bandlikka ta’sir etuvchi omillarning tizimli sxemasi**

Sxemadan ko‘rinib turibdiki, omillarning bandlikka ta’siri ko‘p yo‘nalishli va dinamik xususiyatga ega. Masalan, innovatsion omillar guruhida yangi texnologiyalarni joriy etish qisqa muddatda ayrim mehnat jarayonlarining avtomatlashtirilishiga olib kelishi mumkin, biroq uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi faoliyat yo‘nalishlarining shakllanishi va qo‘shimcha ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qilishi ehtimoli yuqori. Xuddi shuningdek, tashqi iqtisodiy omillar guruhida eksport faolligining ortishi bandlikni kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, import raqobati esa korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Natijada korxonalar samaradorlikni oshirish, yangi bozorlarni egallash va bandlik imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi.

Bunday ko‘p yo‘nalishli va vaqt davomida o‘zgarib turuvchi ta’sirlarni chuqurroq aniqlash uchun tanlangan ekonometrik usul nafaqat statik bog‘liqliklarni, balki omillarning dinamik ta’siri va hududlar o‘rtasidagi heterojenlikni ham hisobga olish imkonini berishi lozim.

Ushbu metodologik talabdan kelib chiqib, tadqiqotda amaliyotda keng qo‘llaniladigan o‘nta metod – dinamik tahlil, korrelyatsion tahlil, ko‘p omilli regressiya, panel Fixed Effects, VAR modeli, bosh komponentalar tahlili (PCA), entropiya usuli, Logit/Probit modellari, Difference-in-Differences (DiD) va ekspert baholash (GEM uslubida) – to‘rtta asosiy mezon: tahlil chuqurligi, sababiy bog‘liqlikni aniqlash imkoniyati, hududiy tafovutlarni nazorat qilish qobiliyati hamda ma’lumotlarga bo‘lgan talab bo‘yicha qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval
Kichik biznes bandligiga ta'sir etuvchi omillarni baholashda qo'llaniladigan ekonometrik metodlarning qiyosiy tahlili

| Metod | Afzalligi | Cheklovi | Qo'llash sohasi |
|---|---|---|---|
| **Dinamik tahlil** | Tendensiya va o'sish sur'atlarini ko'rsatadi | Sababiy ta'sirni aniqlamaydi | Vaqt qatori tahlili |
| **Korrelyatsion tahlil** | Bog'liqlik kuchi va yo'nalishini aniqlaydi | Sababiylikni isbotlamaydi | Dastlabki diagnostika |
| **Ko'p omilli regressiya** | Har bir omilning ta'sirini alohida o'lchaydi | Endogenlik muammosi mavjud | Hudud va firma tahlili |
| **Panel Fixed Effects** | Kuzatilmaydigan hududiy farqlarni nazorat qiladi | Vaqt davomida o'zgarmaydigan omillarni baholamaydi | Hudud × yil kesimi (eng maqbul) |
| **VAR modeli** | Ikki tomonlama dinamik ta'sirni o'lchaydi | Uzun vaqt qatorini talab etadi | Makro daraja |
| **PCA usuli** | Ko'p sonli indikatorlarni integral indeksga aylantiradi | Natijalarni izohlash murakkab | Integral indekslash |
| **Entropiya usuli** | Vaznlarni obyektiv belgilaydi | Ma'lumotlar dispersiyasiga bog'liq | Integral baholash |
| **Logit/Probit** | Ish o'rni yaratish ehtimolini baholaydi | Uzluksiz natijalar uchun mos emas | Firma darajasidagi mikro-ma'lumotlar |
| **Difference-in-Differences (DiD)** | Davlat siyosatining sababiy ta'sirini baholaydi | Mos nazorat guruhini talab etadi | Qo'llab-quvvatlash dasturlari |
| **Ekspert baholash (GEM)** | Institutsional sifatni o'lchaydi | Subyektivlik darajasi yuqori | Ekotizim tahlili (qo'shimcha) |

Har bir metodning tadqiqot maqsadiga – O'zbekistonning 14 ta hududini qamrab oluvchi panel ma'lumotlar bazasida bandlik omillarini baholashga – muvofiqligi besh balli shkalada ekspert baholash asosida aniqlandi (2-rasm).




**2-rasm. Bandlik omillarini baholash metodlarining tadqiqot maqsadlariga mosligi, 5 balli tizim asosida**

Baholash natijalariga ko'ra, Panel Fixed Effects modeli eng yuqori – 5,0 ballik natijani qayd etdi. Mazkur metod hududlarning kuzatilmaydigan doimiy xususiyatlarini, masalan, ishbilarmonlik muhiti yoki mahalliy

boshqaruv sifati kabi omillarni nazorat qilish imkonini berishi bilan belgilangan mezonlarning barchasi bo'yicha muvozanatli natijalarni ta'minlaydi. Ko'p omilli regressiya, PCA va Difference-in-Differences (har biri 4,5 ball) asosiy modelni to'ldiruvchi vositalar sifatida, entropiya usuli hamda Logit/Probit modellari (4,0 ball) esa muayyan masalalarni chuqurroq tahlil qilish uchun qo'shimcha vositalar sifatida tavsiya etildi. Dinamik va korrelyatsion tahlil (3,5 ball) dastlabki diagnostika bosqichida, VAR modeli (3,0 ball) makro darajadagi qo'shimcha tahlil vositasi sifatida, ekspert baholash (2,5 ball) esa institutsional sifatni qo'shimcha ravishda baholash vositasi sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Tanlangan asosiy metod – Panel Fixed Effects – uchun quyidagi ekonometrik spetsifikatsiya shakllantirildi:

$$EMPit = \alpha + \beta_1 ECONit + \beta_2 INSTit + \beta_3 DEMit + \beta_4 REGit + \beta_5 FINit + \beta_6 INNOVit + \beta_7 DIGit + \beta_8 EXTit + \mu i + \lambda t + \varepsilon it, \quad (1)$$

bunda: $\mathbf{EMP_{it}}$ – *i*-hududda *t*-yilda kichik biznesda band bo'lganlar sonining o'sish sur'ati; **ECON, INST, DEM, REG, FIN, INNOV, DIG** va **EXT** – mos ravishda sakkizta omillar guruhining subindekslari; $\mu_i$ – hududning kuzatilmaydigan doimiy xususiyati (Fixed Effect); $\lambda_t$ – yilga xos umumiy shoklar; $\varepsilon_{it}$ – tasodifiy xatolik.

Fixed Effects va Random Effects spetsifikatsiyalari orasidagi tanlov Hausman testi orqali amalga oshiriladi. Uning statistikasi quyidagicha aniqlanadi:

$$H = (\hat{\beta}FE - \hat{\beta}RE)' [Var(\hat{\beta}FE) - Var(\hat{\beta}RE)]^{-1} (\hat{\beta}FE - \hat{\beta}RE) \sim \chi^2(k), \quad (2)$$

bunda **k** – model parametrlari soni. Test statistikasi statistik jihatdan muhim bo'lsa ($p < 0,05$), Fixed Effects spetsifikatsiyasi afzal ko'riladi, chunki ushbu holatda hududiy individual effektlar regressorlar bilan korrelyatsiyalangan bo'lishi mumkin va Random Effects baholovchisining muvofiqligi cheklanishi ehtimoli mavjud.

Modelning ishonchliligini baholash uchun uchta qo'shimcha diagnostik test o'tkaziladi. Multikollinearlikni aniqlash uchun har bir regressor bo'yicha dispersiyani inflyatsiyalash koeffitsiyenti (VIF) hisoblanadi:

$$VIF_j = 1 / (1 - R^2_j) \quad (3)$$

Agar VIF > 10 bo'lsa, jiddiy multikollinearlik mavjudligi ehtimoli yuqori deb baholanadi. Geteroskedastiklik Breusch–Pagan testi, avtokorrelyatsiya esa Wooldridge testi yordamida tekshiriladi. Diagnostik testlar natijasida tegishli muammolar aniqlangan taqdirda, standart xatoliklar hududlar bo'yicha klasterlashtirilgan (clustered standard errors) holda qayta hisoblanadi.

Ushbu spetsifikatsiya asosida standartlashtirilgan regressiya koeffitsiyentlari yordamida har bir omil guruhining bandlikka nisbiy hissasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_j = |\beta_j| / \Sigma|\beta_j| \times 100. \quad (4)$$

Metodologiyaning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Jahon banki tomonidan qo'llaniladigan Shapley dekompozitsiyasi usulidan foydalanish taklif etiladi. Mazkur usul umumiy bandlik o'zgarishini har bir omil guruhining marjinal hissasi asosida taqsimlash hamda standartlashtirilgan koeffitsiyentlar asosida olingan natijalarni qo'shimcha tekshirish (robustness check) imkonini beradi [22].

Xalqaro tashkilotlar ham mazkur yondashuvga yaqin metodologiyalardan foydalanadi. Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVF) SME Financial Inclusion indeksi PCA asosida subindekslarni yagona integral ko'rsatkichga birlashtiradi [6]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) natijaviy ko'rsatkichlarni ijtimoiy va sifat mezonlari bilan to'ldirishni tavsiya etadi [21]. Global Entrepreneurship Monitor (GEM) esa institutsional muhitni ekspert so'rovlari orqali baholaydi [8]. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) bandlik diagnostikasi yondashuvi esa mavjud cheklovlarni bosqichma-bosqich aniqlash mantig'iga asoslanadi [10].

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tizimlashtirish va qiyosiy tahlil natijasida bir qator ilmiy va amaliy natijalarga erishildi. Birinchidan, bandlikka ta'sir etuvchi omillar sakkizta funksional guruhga tizimlashtirilib, ularning ta'sir mexanizmlari aniq belgilandi (1-rasm). Mazkur tizimlashtirish keyingi ekonometrik tahlilda o'zgaruvchilarni tanlash, ularni tegishli ko'rsatkichlar orqali ifodalash hamda o'lchov birliklarini belgilash uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, o'nta ekonometrik metodning to'rtta mezon bo'yicha qiyosiy tahlili (1-jadval) har bir metodning o'ziga xos imkoniyat va afzalliklariga ega ekanini ko'rsatdi. Masalan, korrelyatsion tahlil sodda va tezkor dastlabki

baholash imkonini bersa, DiD usuli tegishli shartlar mavjud bo‘lgan hollarda sababiy ta’sirni chuqurroq baholash imkonini beradi. Shu bois bandlik omillarini kompleks baholashda yagona metodga tayanishdan ko‘ra, o‘zaro to‘ldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiq ekani asoslandi.

Uchinchidan, metodlarning besh balli shkalada baholanishi (2-rasm) Panel Fixed Effects modelining 5,0 ball bilan hududiy panel tadqiqoti uchun eng maqbul asosiy vosita ekanini ko‘rsatdi. Ushbu natija D. J. Storey [19] hamda Z. J. Acs va hammualliflari [1] tomonidan qayd etilgan panel yondashuvning afzalliklari haqidagi xulosalar bilan uyg‘unlashadi. Mazkur tadqiqotda esa ushbu metodning afzalligi to‘rtta aniq mezon asosida sonli baholash orqali yanada tizimli tarzda asoslandi.

To‘rtinchidan, tanlangan Fixed Effects modeli uchun to‘liq ekonometrik spetsifikatsiya (1)-formula shaklida ishlab chiqilib, u Hausman testi (2), VIF ko‘rsatkichi (3), Breusch–Pagan va Wooldridge testlari bilan to‘ldirildi. Mazkur diagnostik tekshiruvlar majmuasi model natijalarining ishonchliligini oshirish, endogenlik, multikollinearlik, geteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya bilan bog‘liq metodologik jihatlarni aniqlash hamda ekonometrik baholash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu yondashuv M. Ayyagari va hammualliflari [3] hamda T. Beck va hammualliflari [4] tomonidan ta’kidlangan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarurati bilan hamohangdir (2-jadval).

2-jadval

Omillar guruhlarining bandlikka kutilayotgan ta’sir yo‘nalishlari va nazariy asoslari

| Omillar guruhi | Kutilayotgan ta’sir yo‘nalishi | Nazariy/empirik asos |
|---|---|---|
| **Iqtisodiy (ECON)** | **Ijobiy:** YaIM o‘sishi → talabning o‘sishi → bandlikning ortishi | Baumol, Beck va hammualliflari [4] |
| **Institutsional (INST)** | **Ijobiy:** tartibga solish yukining pasayishi → tranzaksiya xarajatlarining kamayishi | Acs va hammualliflari [1], G‘afurov [7] |
| **Demografik (DEM)** | **Noaniq:** mehnat taklifining o‘sishi ijobiy, ishsizlik bosimining ortishi esa salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin | Isakjanova [11] |
| **Hududiy (REG)** | **Ijobiy:** infratuzilma va bozor sig‘imining kengayishi | Haltiwanger va hammualliflari [9] |
| **Moliyaviy (FIN)** | **Ijobiy:** kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi | Ayyagari va hammualliflari [3] |
| **Innovatsion (INNOV)** | **Ikki yo‘nalishli:** qisqa muddatda avtomatlashtirish ta’sirida bandlik o‘zgarishi mumkin, uzoq muddatda esa ishlab chiqarish kengayishi hisobiga ijobiy ta’sir kuchayishi kutiladi | Kuziyeva [13] |
| **Raqamli (DIG)** | **Ijobiy:** bozor geografiyasining kengayishi va xarajatlarning kamayishi | Yuldashev [24] |
| **Tashqi iqtisodiy (EXT)** | **Ikki yo‘nalishli:** eksportning kengayishi ijobiy, import raqobatining kuchayishi esa ayrim hollarda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin | Arzikulov [2] |

**Beshinchidan**, kutilayotgan ta’sir yo‘nalishlarining nazariy asoslanishi (2-jadval) shuni ko‘rsatadiki, sakkizta omil guruhidan oltitasining bandlikka bir yo‘nalishli, asosan ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutiladi. Demografik va tashqi iqtisodiy omillar guruhlari esa ikki yo‘nalishli hamda vaqt o‘tishi bilan ta’sir yo‘nalishi o‘zgarishi mumkin bo‘lgan xususiyatga ega. Mazkur holat panel modelidan foydalanish, xususan, hudud va yil bo‘yicha fixed effectlarni kiritishning metodologik ahamiyatini oshiradi. Chunki oddiy ko‘ndalang kesim (cross-section) regressiyasi hududlar va vaqt bo‘yicha yuzaga keladigan o‘ziga xos tafovutlarni to‘liq ajratib ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi. Olingan natijalar tadqiqot boshida belgilangan uchta asosiy vazifa bilan izchil bog‘langan: omillarni tizimlashtirish vazifasi 1-rasm orqali, metodlarni qiyoslash va tanlash vazifasi 1-jadval hamda 2-rasm orqali, ekonometrik spetsifikatsiyani asoslash vazifasi esa (1)–(4)-formulalar orqali amalga oshirildi.

Shu bilan birga, tadqiqotning metodologik chegarasi sifatida shuni qayd etish lozimki, taklif etilgan metod tanlash mexanizmi va kutilayotgan ta’sir yo‘nalishlari nazariy hamda ekspert baholashlariga asoslangan. Ularning aniq miqdoriy qiymatlarini, ya’ni β-koeffitsiyentlarni aniqlash uchun O‘zbekiston hududlari bo‘yicha tegishli real panel ma’lumotlar bazasini shakllantirish va (1)-formulada keltirilgan modelni empirik baholash talab etiladi. Mazkur yo‘nalish tadqiqotning keyingi empirik bosqichida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, olingan natijalarni amaliy jihatdan yanada boyitish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijasida kichik biznesda bandlikka ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va ularni baholash uchun ekonometrik yondashuvlarni tanlashga qaratilgan kompleks ilmiy-metodik yechim ishlab chiqildi. Bandlikka ta'sir etuvchi omillar sakkizta funksional guruhga – iqtisodiy, institutsional, demografik, hududiy, moliyaviy, innovatsion, raqamli va tashqi iqtisodiy omillarga – tizimlashtirilib, ularning ta'sir mexanizmlari hamda kutilayotgan yo'nalishlari nazariy jihatdan asoslandi.

O'nta ekonometrik metodning to'rtta mezon bo'yicha qiyosiy tahlili hamda besh balli ekspert baholash tizimi asosida hududiy panel tadqiqoti uchun Panel Fixed Effects modeli asosiy vosita sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Ko'p omilli regressiya, PCA va Difference-in-Differences metodlari esa asosiy modelni to'ldiruvchi tahliliy vositalar sifatida belgilandi. Bunday metodologik kombinatsiya bandlik omillarini turli nuqtayi nazardan baholash va tadqiqot natijalarining tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tanlangan model uchun to'liq ekonometrik spetsifikatsiya, modelni tanlash uchun Hausman testi, multikollinearlikni baholash uchun VIF ko'rsatkichi hamda geteroskedastiklik va avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Breusch–Pagan va Wooldridge testlaridan iborat diagnostik yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur metodologik vositalar majmuasi keyingi empirik baholash jarayonida model natijalarining barqarorligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan yondashuv davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash resurslarini bandlikni oshirish salohiyati yuqori bo'lgan omillar va hududlarga yanada samarali yo'naltirish imkonini beradi. Natijada davlat qo'llab-quvvatlash choralarining manzilliligi, iqtisodiy samaradorligi va bandlikka ta'sirchanligini oshirish uchun zarur metodologik asos shakllantiriladi.

Ishlab chiqilgan yondashuv tadqiqotning keyingi bosqichida O'zbekistonning 14 ta hududi bo'yicha shakllantiriladigan panel ma'lumotlar bazasida empirik sinovdan o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu empirik bosqich orqali kichik biznesda bandlikka ta'sir etuvchi omillarning real miqdoriy ta'sirini aniqlash, hududlar kesimidagi farqlarni baholash hamda bandlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot kichik biznesda bandlikni oshirishga qaratilgan hududiy siyosat va amaliy chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Acs Z. J., Estrin S., Mickiewicz T., Szerb L. Entrepreneurship, Institutional Economics, and Economic Growth: An Ecosystem Perspective // *Small Business Economics*. – 2018. – Vol. 51. – P. 501–514. DOI: https://doi.org/10.1007/s11187-018-0013-9
2. Arzikulov O. Kichik va o'rta biznesning YaIM, bandlik, eksport ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15397671
3. Ayyagari M., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Who Creates Jobs in Developing Countries? // *Small Business Economics*. – 2014. – Vol. 43. – № 1. – P. 75–99. DOI: https://doi.org/10.1007/s11187-014-9549-5
4. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. SMEs, Growth, and Poverty: Cross-Country Evidence. – NBER Working Paper № 11224. – 2005. DOI: https://doi.org/10.3386/w11224
5. Davis S. J., Haltiwanger J., Schuh S. Small Business and Job Creation: Dissecting the Myth and Reassessing the Facts. – NBER Working Paper № 4492. – 1993. DOI: https://doi.org/10.3386/w4492
6. Fouejieu A., Sydorenko T., Nguyen A. Unlocking Access to Finance for SMEs: A Cross-Country Analysis. – IMF Working Paper № 20/55. – 2020. DOI: https://doi.org/10.5089/9781513536156.001
7. G'afurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 68 b.
8. Global Entrepreneurship Monitor. GEM Methodology: Adult Population Survey and National Expert Survey [Elektron resurs]. – URL: https://www.gemconsortium.org/wiki/1599 (murojaat qilingan sana: 2026-yil 20-avgust).
9. Haltiwanger J. C., Jarmin R. S., Miranda J. Who Creates Jobs? Small versus Large versus Young // *Review of Economics and Statistics*. – 2013. – Vol. 95. – № 2. – P. 347–361. DOI: https://doi.org/10.1162/REST_a_00288
10. International Labour Organization (ILO). Employment Diagnostic Analysis: A Methodological Guide [Elektron resurs]. – Geneva: International Labour Office. – URL: https://www.ilo.org/publications/employment-diagnostic-analysis-methodological-guide (murojaat qilingan sana: 2026-yil 20-avgust).
11. Isakjanova S. Yoshlar demografiyasi, tadbirkorlik va bandlik ko'rsatkichlari statistikasi. DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1543

12. Kurbonov J. Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a218
13. Kuziyeva G. R. Innovatsiya va raqamlashtirishning kichik biznesdagi ishchi kuchi samaradorligiga ta'siri. DOI: https://doi.org/10.55439/lehc/vol3iss4/a134
14. OECD. Data and Methods for Entrepreneurial Ecosystem Diagnostics. – Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: https://doi.org/10.1787/5173f4a2-en
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni [Elektron resurs]. – Ma'lumotlar to'plami 2026-yil 20-iyulda yangilangan. – URL: https://siat.stat.uz/data/425/ (murojaat qilingan sana: 2026-yil 20-iyul).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori // Lex.uz [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6609110
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni // Lex.uz [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-7444738
18. Salaev S. K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash // *Moliya va bank ishi jurnali*. – 2022. – URL: https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/586
19. Storey D. J. *Understanding the Small Business Sector*. – London: Routledge, 1994. – 355 p.
20. Thurik A. R., Carree M. A., van Stel A., Audretsch D. B. Does Self-Employment Reduce Unemployment? // *Journal of Business Venturing*. – 2008. – Vol. 23. – № 6. – P. 673–686. DOI: https://doi.org/10.1016/j.jbusvent.2008.01.007
21. UNDP. Small Business, Big Impact: Impact Measurement and Management for MSMEs [Elektron resurs]. – URL: https://www.undp.org/latin-america/publications/small-business-big-impact (murojaat qilingan sana: 2026-yil 20-avgust).
22. World Bank. Jobs Diagnostics: Tools and Business Dynamics Tool [Elektron resurs]. – Washington, D.C.: World Bank Group. – URL: https://datatopics.worldbank.org/jobsdiagnostics/jobs-tools.html (murojaat qilingan sana: 2026-yil 20-avgust).
23. Xoliyorova Sh. Kichik biznesda ayollar barqaror bandligiga ta'sir qiluvchi omillar. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.16927741
24. Yuldashev F. N. Kichik biznesda axborot tizimlaridan foydalanish va xodimlar faoliyati samaradorligi. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a99

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz